

**YANGI O‘ZBEKISTON ARMIYASIDA “HARBIY MADANIYAT”
TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI**

**ПОНЯТИЕ «ВОЕННАЯ КУЛЬТУРА» И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-
ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ В НОВОЙ АРМИИ УЗБЕКИСТАНА**

**THE CONCEPT OF "MILITARY CULTURE" AND ITS SOCIO-
PHILOSOPHICAL ESSENCE IN THE NEW UZBEKISTAN ARMY**

G‘afurov Behruz Tolib o‘g‘li, Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa
doktori(PhD), bo‘lim boshlig‘i.

Гафуров Бехруз Толиб угли, Доктор философских наук (PhD) по
специальности «Философия», заведующий кафедрой.

Gafurov Behruz Talib ogli, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy,
Head of Department.

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING
ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Harbiy Madaniyat” tushunchasi, Yangi O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tarkibida xizmat olib borayotgan harbiylarimizning “harbiy madaniyat”ini yuksaltirish va uning mazmun mohiyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Harbiy madaniyat, Qurolli Kuchlar, harbiy texnika, harbiy infratuzilma va mamlakat mudofaasi.

АБСТРАКТ

В данной статье рассматривается понятие «Военная культура», совершенствование «военной культуры» наших военнослужащих, служащих в Вооружённых Силах Нового Узбекистана, её содержание и сущность.

Ключевые слова: Военная культура, Вооружённые Силы, военная техника, военная инфраструктура, оборона страны.

ABSTRACT

This article discusses the concept of "Military Culture", the improvement of the "military culture" of our military personnel serving in the Armed Forces of New Uzbekistan, and its content and essence.

Key words: Military culture, Armed Forces, military equipment, military infrastructure, and national defense.

KIRISH

Jahonda global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz berayotgan, xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanayotgan bir sharoitda yangi tahlikalar paydo bo'lmoqda, bu holat dunyo mamlakatlarini yuzaga kelayotgan muammolarga munosib yechim topish, siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni yangilashga majbur qilmoqda. Insoniyat duch kelayotgan ko'plab muammolarni, mamlakatda tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirini kamaytirish, pandemiya va boshqa tabiiy ofatlar bilan kurashish kabi muammolarni hal etish jarayonlariga armiyani faol jalb qilishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqib, har bir mamlakat o'zining harbiy sohasini, shuningdek, harbiy madaniyatini ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, mamlakat xarajatlarining asosiy qismini shu sohaga yo'naltirmoqda. Jumladan, hozirgi kunda AQSh, Hindiston, Rossiya, Buyuk Britaniya va Xitoy harbiy xarajatlari eng katta davlatlar beshligiga kiritilgan bo'lib, ular dunyo xarajatlarining 62 foizini tashkil etmoqda. Dunyoda mamlakat mudofaasining asosiy ko'rsatkichi haqiqiy vatanparvar, ma'nan yetuk, tajribasi va bilimini Vatanga baxshida etuvchi avlodni shakllantirish, davlat boshqaruvining yuksak samaradorligi, harbiy sanoatning to'g'ri strategiyasi, zamonaviy qurol va texnikalar ishlab chiqarish bilan izohlanadi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqib, barcha mamlakatlar harbiy sohani rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratmoqda. Ayni paytda jahon hamjamiyatida mavqeini belgilab beradigan, zamonaviy qurolli kuchlar, shuningdek, ma'nan yetuk, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, tezkor strategik boshqarish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda harbiy sohaga munosabat tubdan o'zgardi. Harbiy sohani isloh qilish, harbiy qo'shinlarni har tomonlama rivojlantirishning tezkor mexanizmlarini ishlab chiqish, shaxsiy tarkibning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilash, axloqiy-ruhiy qat'iyatlarini takomillashtirish strategik vazifalardan biriga aylandi. Sohadagi ulkan o'zgarishlarning ijobiy natijasi sifatida "Xalqaro armiya o'yinlari", "Kembriya patruli" (Angliya), "Eng yaxshi jangchi" (AQSh) kabi xalqaro harbiy

musobaqalarda harbiylarimiz 90 mamlakatdan ishtirok etgan 123 jamoa orasida g‘olib bo‘lganliklari bu boradagi ishlar to‘g‘riligini yaqqol isbotlaydi. “Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta‘minlangan bo‘lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas‘uliyat hissi yo‘qligi yoki loqaydlik tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin” . Bugungi kunning asosiy masalasi bo‘lib turgan, shuningdek mamlakat rahbari tomonidan ta‘kidlab o‘tilgan oqibatlarning oldini olish uchun bu sohada ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolada tadqiqot maqsadini amalga oshirishning ikkita usuli harbiy madaniyatni o‘rganish uchun mos kelishi ta‘kidlanadi. Birinchi usul harbiy madaniyatning ma‘naviy hodisalarini nazariy tahlil qilish bo‘lib, bunda harbiy sohada amalga oshirilgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi. Lekin bu usulda tadqiq qilinsa, ko‘pincha harbiy ishlarni o‘rganuvchi boshqa fan vakillari: tarixchilar, harbiy nazariyotchilar tomonidan qilingan ishlarning takrori bo‘lib qolishi mumkin. Bu holatda tegishli uslubiy pozitsiyani tanlashga to‘g‘ri keladi. Muammoni muvaffaqiyatli hal qilgan taqdirda ham jamiyatning harbiy madaniyati mazmuni haqidagi g‘oyalarning “torayishi” ehtimoli yo‘qolmaydi, harbiy madaniyatning «madaniy» jihatdan o‘ziga xosligini ochib berishga xalaqit beradi. Ikkinchi usul jamiyat harbiy madaniyatining mohiyati va mazmunini muayyan madaniyat sifatida mazmun tafsilotlari va o‘ziga xos xususiyatiga qarab o‘rganishdan iborat bo‘lib, bu usul uslubiy jihatdan samarali ekanligi nazarda tutiladi. Harbiy madaniyatni tadqiq qilishda nazariyotchilar uning kelib chiqishini ikki davrga bo‘lishgan va ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilishgan. Birinchi davr nazariyagacha bo‘lgan davr, empirik ma‘lumotlarni to‘plash, harbiy madaniyatning umumlashtirilgan nazariy modelini yaratish uchun zamin yaratish bilan bog‘liq. Harbiy madaniyat jamiyatning dastlabki bosqichlarida paydo bo‘lgan. Antropolog va etnologlarning fikrlariga ko‘ra, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, qurolli to‘qnashuvlarda qon to‘kilishining oldini olish uchun turli xil qonun-qoidalar ishlab chiqilgan, tinchlikni o‘rnatishga yordam beradigan tartib va qoidalar asosida tartib saqlab turilgan. Bu hodisalar sinf va davlatlar paydo bo‘lishidan ancha oldin ro‘y bergan. Ikkinchi davr XX asr boshlarida harbiy madaniyat o‘zini o‘zi aks ettirgan paytdan boshlab, “harbiy madaniyat” tushunchasini ilmiy tadqiq qilish, uning

mohiyatini aniqlash bilan boshlanadi. “Harbiy madaniyat” tushunchasini birinchi bo‘lib, rus qo‘mondoni A.V. Suvorovning harbiy san‘atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasini tavsiflashda rus publitsisti M.O.Menshikov XX asr boshlarida qo‘llagan» {1}. Bu tushunchani boshqa hujjatlarda ham uchratish mumkin. Masalan, Qizil Armiya siyosiy organlarining hujjatlarida, ya’ni “Qizil Armiya siyosiy deklaratsiyasining Butunittifoq kommunistik partiyasi Bolsheviklar markaziy qo‘mitasining 1940 yil 23 maydagi hisobotida sovet-fin urushidagi katta yo‘qotishlarning sabablaridan biri armiya xodimlarining harbiy madaniyati pastligi va urushning mohiyatini tushunib yetmaganliklari” {2} ko‘rsatib o‘tiladi. G‘arb nazariyotchilari tomonidan harbiy madaniyat “strategik madaniyatning tarkibiy qismi va jamiyatdagi strategik qarorlar shakllari” {3} sifatida sharhlangan. Amerikalik Karn Lord “Xalqaro munosabatlar, geosiyosiy mavqe, mafkura, siyosiy madaniyat, harbiy madaniyatning tarixi, harbiy aloqalar, harbiy ta’lim, harbiy qadriyatlarni strategik madaniyatning belgilovchi omillari”, {4} degan xulosaga kelgan. Sobiq Ittifoq tadqiqotchilari, harbiy madaniyat terminini, odatda, ishlatmaganlar, ammo armiyadagi ma’naviy-madaniy, axloqiy-ruhiy holatlarni tahlil qilish ularning diqqat markazida bo‘lgan. Bugungi kunda rus harbiy nazariyotchisi V.I. Bajukovning bergan ta’rifi harbiy madaniyatning ko‘p jihatlarini ochib bergan: “Harbiy madaniyat turli sub’ektlardagi harbiy me’yoriy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy va belgi elementlarini qamrab oladi. Harbiy madaniyat keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Keng ma’noda, harbiy sohada inson tomonidan yaratilgan barcha narsalarni ko‘zda tutadi. Tor ma’noda, harbiy sohada inson xulq-atvorining mustahkam tarixan individual, guruh, ommaviy tarzda tafakkur (ongdagi) ustanovka va modellarini nazarda tutadi”{5}. Fikrimizcha, harbiy madaniyatning yuqorida keltirilgan ta’riflarda asoslab berilgan elementlaridan tashqari moddiy va ma’naviy, rasmiy va norasmiy elementlari ham mavjud. Harbiy madaniyatda rasmiylik yuqori darajada uning tuzilishi va faoliyatini qamrab oladi, chunki harbiy faoliyatda harbiy nizomlar mavjud bo‘lib, ular harbiy xizmat qonunidir. Munosabatlar rasmiyligi rasmiy madaniyatdagi fenomenlarning borligi tufayli amalga oshadi. Bunga Qurolli Kuchlarimizning harbiy nizomlari tarkibidagi “Intizom nizomi” misol bo‘la oladi. Norasmiy harbiy madaniyatga nizomlarda ko‘rsatilmagan, lekin harbiy faoliyatda uzviy davom etadigan an’analarni kiritishimiz mumkin. Norasmiy madaniyat har bir bo‘linma yoki harbiy qismda jamoa ichida, rasmiy madaniyat butun bir armiya

miqyosida namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “harbiylar madaniyati” qurolli to‘qnashuvlarda qatnashadigan har qanday shaxsga tegishli bo‘lgan axloqiy normalar, qonun qoida va qadriyatlarni qamrab oladi. Harbiy madaniyat moddiy va ma’naviy mehnat bo‘lib, shu sohaga tegishli bo‘lgan qadriyatlar, me’yorlar, axloqiy qoidalarni o‘z ichiga oladi. Harbiy xizmatchilar ongiga maqsadli ravishda singdiriladigan harbiy faoliyat tashkil qilishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, uning bir qismi harbiylar madaniyati hisoblanadi. Demak “harbiy madaniyat” bilan “harbiylar madaniyati” tushunchalari bir-biridan farq qiladi. “Harbiy ishlar” qo‘shinlar jangovar tayyorgarligining maqsadi, dasturi, uslubiyati, yoshlarni chaqiriqqacha tayyorlash ishlarini anglatadi. “Harbiy madaniyat”ni “harbiy ishlar” tarkibiga kiritib bo‘lmaydi, chunki unda faqat harbiy xizmatchilarning harbiy madaniyati tushuniladi, ushbu yondashuv bilan boshqa madaniy mavzular tahlildan tashqarida qoladi. Harbiy madaniyat harbiy ishlarga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Armiyada harbiy sohaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligini hisobga oladigan bo‘lsak, harbiy harakatlar jarayonida harbiy sohani alohida ko‘rib chiqishimiz mumkin bo‘ladi. Harbiy sohada qo‘yilgan vazifalar shaxsiy tarkib, qurol-yarog‘, harbiy texnika va harbiy infratuzilma orqali amalga oshiriladi, shuningdek, harbiy siyosatni amalga oshirishda urush qurollari ishlab chiqiladi va ishlatiladi. Davlatning ma’lum bir siyosiy maqsadga erishish uchun olib boradigan qurolli to‘qnashuvlarga tayyorlanish va amalga oshirish uchun mablag‘larni yo‘naltiradigan mexanizmi mavjud. “Harbiy ishlar” tushunchasiga nisbatan “harbiy soha” tushunchasi kengroq ma’no anglatadi. Harbiy madaniyat ijtimoiy hodisa bo‘lib, umumiy madaniyatga bog‘liq holda rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, harbiy madaniyat bilan umumiy madaniyatning bir-biriga aloqadorligini quyidagi tavsiflar orqali ochib berish mumkin: birinchidan, u inson faoliyatidagi harbiy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli o‘zaro munosabatlarni tiklashga qaratilgan ixtisoslashgan madaniyatning sohasi sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniyat esa turli hayotiy vaziyatlarda xatti-harakatlarning muayyan shakl va qoidalarini belgilaydi. Ikkinchidan, harbiy madaniyat, harbiy qadriyatlar, ijtimoiy-ma’naviy sharoitlar, ya’ni harbiy texnika, infratuzilmalar, qurol-yarog‘, mamlakat aholisining o‘z vatanparvarlik burchini bajarishga tayyorligi Vatan manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo‘lib, bularsiz u o‘ziga xos xususiyatini yo‘qotadi. Jamiyat madaniyati qadriyatlar tizimidan iborat bo‘lib, u borliqqa, shu bilan birga, harbiy sohaga ham aloqador. Shunday ekan, u

harbiy madaniyat sub'ektlari rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, harbiy madaniyat barcha madaniyatga, shuningdek, fan, san'at, dinga ta'sir qiladi, bu ta'sir harbiy harakatlar (siyosiy, huquqiy, iqtisodiy madaniyat) bilan uzviy bog'liq bo'lgan madaniyatlarda bevosita aks etadi. Ma'lum bo'ladiki, harbiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyati emas, balki uning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinsa, ular o'rtasida muvofiqlashtirilgan aloqalar o'rnatilsa, umumiy madaniyat, shubhasiz, harbiy madaniyatga fundamental asos bo'lib xizmat qiladi, inson faoliyatining o'ziga xos tomonini aks ettiradi. U jamiyat, davlat va shaxs manfaatlarini himoya qilishning alohida turi, qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, me'yorlar majmui bo'lib, harbiy jamoada yaratilgan va ishlaydigan rasmiy hamda norasmiy madaniyatlarning yig'indisi, sohani tashkil etish usuli. Harbiy madaniyat jamiyatning harbiy madaniyati hamda armiyaning harbiy madaniyati shaklida namoyon bo'ladi, ularning har biri moddiy va ma'naviy tarkibiy qismlarni tashkil qiladi. Armiya madaniyati jamiyat harbiy madaniyatning yadrosini tashkil qiladi, uning tarkibiy qismi, rivojlanish vositasi sanaladi. Jamiyat rivojlanib borgan sari armiyaning harbiy madaniyati ob'ekt sifatida xizmat qiladi, jamiyatning harbiy madaniyati rivojlanishida juda katta rol o'ynaydi. Harbiy madaniyatning xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi: harbiy madaniyat jamiyatda insonlar, qurolli to'qnashuvlar bilan bog'liq bo'lganligidan kelib chiqib, umumiy madaniyatning bir shakli sifatida mamlakatning harbiy tizimdagi faoliyatini o'z ichiga oladi, harbiy madaniyat ijtimoiy hodisa bo'lib, umumiy madaniyatga bog'liq holda rivojlanadi, ijtimoiy hayot, shaxs, siyosatdagi dinamik munosabatlarga kiradi, harbiy madaniyat faqat yakson qilish, qurolli to'qnashuvlargagina emas, turli xil qurolli harakatlarni to'xtatishga ham xizmat qiladi. Misol tariqasida dunyoda sodir bo'layotgan turli mojarolarning oldini olish va to'xtatishga qaratilgan harbiylar shaxsiy tarkibidan iborat bo'lgan tinchliksevar qo'shinlar faoliyatini keltirishimiz mumkin. Armiyaning, asosan, erkaklar faoliyat olib boradigan tizim, standartlashtirilgan faoliyat, harbiy qadriyatlarning boshqalarga nisbatan ustunligi, ochiq va yashirin shakli, harbiy mehnat jarayonida munosabatlarning yuqori rasmiylashtirilganligi, semiotik va ramziy kabi armiya harbiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Harbiy madaniyatni shakllantirishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan O'zbekiston Qurolli Kuchlari faoliyatida, shuningdek, O'zbekiston Mudofaa vazirligi

qo'shinlari tizimida harbiy xizmatchilarni Vatanga sadoqat bilan xizmat qiladigan, ma'nau yetuk, yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishda, harbiy qismlarda olib boriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanish mumkin. Harbiy madaniyat turli sub'ektlardagi harbiy faoliyat motivatsiyasi va regulatsiyasini ta'minlovchi qadriyatlar, me'yorlar majmui hamda jamiyat, davlat va shaxs manfaatlarini himoya qilishning alohida turi, davr ruhini aks ettiruvchi madaniy munosabatlarning tarixiy rivojlangan tizimi bo'lib, jamiyat madaniyati unga fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy madaniyat jamiyat harbiy madaniyati va armiyaning harbiy madaniyati shaklida namoyon bo'ladi. Harbiy madaniyatning rivojlanishi davlat hamda jamiyat ishtirokida amalga oshadi. Harbiy madaniyatning o'ziga xosligi va asosini belgilovchi shaxsiy tarkibning o'zaro munosabat madaniyati, harbiy-siyosiy madaniyat, buyruq va ijro madaniyati, harbiy texnik va intizom madaniyati jamiyatda mavjud madaniyat bilan integratsiyalashuvning natijasi hisoblanadi.

Harbiy madaniyat rasmiy va norasmiy shaklda harbiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Harbiy madaniyatda rasmiylik yuqori darajada uning tuzilishi va faoliyatini qamrab oladi, chunki harbiy faoliyatda harbiy nizomlar mavjud bo'lib, ular harbiy xizmat qonunidir. Harbiy madaniyat o'ziga xos yashirin va ochiq turlarga bo'linadi. Bugungi kunda harbiy, siyosiy, iqtisodiy sohadagi islohotlar va ularning rivojlanish darajasi harbiy madaniyatning yashirin shakli hisoblanadi.

Harbiy madaniyatning o'ziga xos: shaxsiy xavfsizlikdan yurt xavfsizligini ustun turishi, armiya asosan erkaklar faoliyat olib boradigan tizim, semiotik va ramziy xususiyatlari hamda vayronkor va konstruktiv xarakteri mavjud bo'lib, u jamiyat madaniyatining tarkibiy qismi sifatida davlatdagi harbiy tashkilotlar faoliyatini o'z ichiga oladi, u urush sharoitida butun jamiyatning madaniyatiga ta'sir qilish kuchiga ega. Harbiy etos harbiy xizmatchilarni o'ziga xos madaniyat yo'nalishi bo'lib, harbiy an'ana, urf-odatlar, harbiy-axloqiy me'yorlarni o'z ichiga oladi. Harbiy etosni ommalashtirish jamiyatda axloqiy hamda ma'naviy salohiyatni rivojlantirish, komil insonlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, harbiy etos nafaqat askarlarga, balki butun xalqqa tegishli bo'lishi kerak.

XULOSA

Buyuk ajdodlarimiz aqlan va jismonan yetuk, yuksak madaniyatli bo'lgan qo'shinlarga ega davlat hech qachon birovga qaram bo'lmaydi hamda o'zligini, o'z qadr qimmatini unitmaydi deya bejizga aytmagan. Hozirgi Yangi O'zbekiston sharoitidagi milliy armiyamizga aynan yuksak madaniyatga ega professional harbiy xizmatchilar kerak bo'ladi va ularni shakllantirib borish orqali qurolli kuchlarimiz yanada rivojlanib boradi. Yuksak "Harbiy madaniyat" sohibi bo'lgan O'zbekiston harbiylari esa dunyoning eng kuchli armiyasini barpo etishda haqiqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Меньшиков М.О. Письма к ближним. – Петербург: Военное издательство, 1915 . – С.189.
2. Мехлис Л. З. О работе Политического управления Красной Армии. Из доклада в ЦК ВКП (б). 23 мая 1940 г. // Известия ЦК КПСС. 1990. -№ 3.
3. Bruno Colson. La culture stratégique française // Stratégique. Paris. 1992. – № 53. – P.27
4. Бажуков В.И. Эвристические возможности антропологического подхода к исследованию военной культуры: Дисс. ...канд. филос. наук. – М.: СПб, 2009. – С.78.
5. Тешабаев М. М. Формирование основ нравственной культуры личности в образовательном процессе и гуманистическое мировоззрение //Credo new. – 2011. – №. 1. – С. 19-19.
6. Тешабоев М. Моральная культура личности как фактор устойчивого развития общества //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 6. – С. 85-87.
7. Marifovich T. M. Impact of Globalization on Human And Social Culture //International Journal of Scientific Research And Education. – 2019. – Т. 7. – №.4